



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida" 2020-yil 31-dekabrda 829-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, Xalq ta'limi vazirligi tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish va korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish maqsadida **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-son qarori (keyingi o'rinlarda Qaror deb yuritiladi) vazir o'rinbosarlari, boshqarma va bo'limlari, hududiy boshqarmalar boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari tomonidan rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq:

shaxs korrupsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq davlat mukofotiga ham tavsiya etilishi mumkinligi;

rag'batlantirish masalasi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoki ma'muriy ishlar bo'yicha sudning qarori qonuniy kuchga kirgandan so'ng ko'rib chiqilishi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish asoslari va turlari 1-ilovaga muvofiq;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Yuridik bo'lim (X.Asrorov) hududiy xalq ta'limini boshqarish organlarining yuridik xizmatlari bilan birgalikda qarorning mazmun-mohiyatini tushuntirish yuzasidan huquqiy targ'ibot ishlarini olib borsin.

5. Vazirning Nazorat-huquqiy xizmati (I.To'rayev)ga:


korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasi bo'yicha korruptsiyaga qarshi kurashuvchi organlar huzurida tuziladigan maxsus komissiyalarga taqdimnoma kiritish uchun vazirlik rahbariyatiga ma'lumot kiritish;

Xalq ta'limi vazirligi tizimida korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisobotlarni har chorakda vazirlik rahbariyatiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 28-martdagi "Korruptsiyaga qarshi kurashishning kechiktirib bo'lmas chora-tadbirlari to'g'risida"gi 114-sonli buyrug'ining 9-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



Sh.Shermatov

Toshkent sh.,
2021-yil 8 - yanvar,
2 -son

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki
korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni
rag'batlantirish asoslari va turlari**

1. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

fuqarolar yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan o'zlariga nisbatan pora talab qilgan shaxs haqida yoki o'zlariga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga bergan xabari asosida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

nodavlat tashkilotining yoki davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisi o'ziga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida yoxud o'ziga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga (korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarning xodimlari esa bevosita o'z rahbariga) bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi;

korrupsiyaga oid jinoyatni sodir etganligi uchun qidiruvda bo'lgan shaxs to'g'risida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga berilgan xabar asosida qidiruvdagi shaxs ushlanishi.

2. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

a) korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun — bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida;

b) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lsa:

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida;

uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida;

og'ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida;

o'ta og'ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida;

korruptsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat haqida yoxud qidiruvdagi shaxs to'g'risida ikki yoki undan ortiq shaxsning bergan xabari uchun pul mukofoti miqdorining teng ulushlarida rag'batlantiriladi.

5. Shaxs korruptsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq davlat mukofotiga ham tavsiya etilishi mumkin.

6. Quyidagi qarorlardan biri qabul qilingandan so'ng rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqiladi:

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoki ma'muriy ishlar bo'yicha sudning qarori qonuniy kuchga kirganda;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi birinchi qismining 1 — 3-bandlari, uchinchi qismi hamda beshinchi qismining 1-bandi asosida ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror prokuror tomonidan tasdiqlanganda yoki sudning ajrimi qonuniy kuchga kirganda;

qidiruvdagi shaxsga nisbatan qidiruvning bekor qilinganligi to'g'risida prokurorning, surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sudning ajrimi qabul qilinganda.

7. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

5. Maxsus komissiyalarning raislari komissiya qarori qonuniyligi, xolisligi hamda shaxslarning shaxsiga oid ma'lumotlar oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

6. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organ maxsus komissiyaning qarori asosida bir ish kuni ichida bir martalik pul mukofoti yoki esdalik sovg'asi bilan taqdirlash haqida qaror chiqaradi.

Bir martalik pul mukofoti xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritilgandan so'ng o'n ish kuni ichida shaxslarning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkazib beriladi, esdalik sovg'asi esa qonun hujjatlariga muvofiq sovg'a qilinadigan buyum xarid qilingandan so'ng besh ish kuni ichida topshiriladi.

7. Tashakkurnoma shaklida rag'batlantirish masalasi bevosita korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organ rahbari tomonidan ko'rib chiqiladi.